

## “AQLI ZAIF BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK ISHLARNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI”

*Namangan Davlat Pedagogika inustituti Pedagogika fakulteti Maxsus  
Pedagogika (logopediya) yo'nalishi 3 kurs talabasi  
Karimova Nadiya Baxoniddinovna*

**Annatotsiya:** Aloida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni sog'lomlashtirish, ularni sog'lom tengdoshlari qatoriga qo'yish, ijtimoiy, moddiy jihatdan qo'llab – quvvatlash va mustaqil hayotga tayyorlash kabi masalalar bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Aqli zaif bolalar o'zi qanday bolalar, ularni turlari kelib chiqish sabablari, davolash usullari, logopedik ishlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Me'yor, go'daklik, debil, analitik- sintetik, sensomotor dizartriya, sintez, defekt, differensiya, operatsiya, polimorf, akustik, talaffuz, kinestetik, passiv, avtomatizatsiya.

**Аннотация:** Такие вопросы, как реабилитация детей, нуждающихся в специальной помощи, устройство их среди здоровых сверстников, социальная и материальная поддержка, к самостоятельной жизни, являются одними из самых актуальных вопросов современности. Даны сведения о типах умственной отсталости детей, причинах их возникновения, методах лечения, особенностях логопедической работы.

**Ключевые слова :** Норма, младенчество, дебил, аналитико-синтетический, сенсомоторный синтез дизартрии, дефект, дифференцировка, операция, полиморфная, акустическая, произношение, кинестетическая, пассивный, автоматический.

**Abstract:** Issues such as improving the health of children with special needs, placing them among healthy peers, providing social and material support and preparing them for independent life are the most important issues today. Is one of the urgent issues. Mentally retarded children, what kind of children they are types, causes of origin, methods of treatment, characteristic of logopedic work information about the characteristics is given.

**Keywords:** Melvor, nutritive, debil, analytical- synthetic, sensorimotor dysarthria synthesis, defect, differentiation, operation, polymorph, acoustic pronunciation, kinesthetic passive automation.

### **Kirish**

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov “ Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham ,tarbiya ham zamon o'rtaga qo'yayotgan yangi-yangi

talablarga ko'ra muttasil ravishda o'zgarib, yangilanib boraveradi. Faqat biz bu sohadagi dastlabki qadamlarni to'g'ri qo'ya olsak, poydevorni mustahkam qilib barpo etsak, men shunga ishonamanki, bugungi avlod bizning qilgan ishlarimizni ehtirom va minndorchilik tuyg'usi bilan eslaydi."- deya e'tirof etgan edilar! Defektologiya muammolari bilan shug'ullanuvchi chet el defektologlari, aqli zaiflik to'g'risida gapirib, bu tushunchani unga aqliy kamchilikni qo'shish bilan kengaytiradilar, uning yuzaga kelishi erta bolalik vaqtida bola rivojlanishni o'ta nomuwofiq ijtimoiy sharoitlari bilan bog'liq bo'ladi. Atrofdagilar kishilar bilan intellektual va hissiy muloqat yetishmasligi, doimiy to'yib ovqatlanmaslik va hokazolar ko'zda tutiladi.

Aqliy zaif bolalar asosan maktab- internatlarida tarbiyalanadilar, ular XX asr oxirigacha yordamchi deb atalardi, hozir VIII turdag'i maxsus mehnat ta'limi maktablari deb nomlanadi. Aqliy zaif bolalarning ayrim qismi ommaviy umumta'lim maktablarida tashkil qilingan korreksion rivojlantirish ta'lim sinflarida o'qiydilar, hamda uy sharoitida individual o'qitiladi.

### **Asosiy qism**

Aqli zaif bolalarning ko'p qismini oligofrenlar tashkil qiladilar ( grekcha oligofren, phrenos- aql). Miya tizimlarining shikastlanishi, asosiysi miyaning o'ta murakkab va kech shakllanuvchi tuzilishlari psixikaning buzilishi va chala rivojlanishiga sabab bo'lib, rivojlanishining dastlabki bosqichlarida yuzaga keladi; ona qornida, tug'ruq paytida va bir, bir yarim yoshida, ya'ni nutq shakllanmasdan avval. Oligofreniyada miyaning organik yetishmovchiligi rezidal ( qoldiq), noprogredivent ( murakkablashmaydigan) xarakterga ega. Bola hayotining yanada kechroq davrida yuzaga kelgan aqli zaiflik nisbatan kam uchraydi. Bu demensiya deb yuritiladi.

XX asrning 90- yillardan boshlab aqli zaiflarning xalqaro tasnididan foydalana boshlandi, unga binoan bolalarni 4 guruhga bo'ladilar: yengil, o'rtacha, og'ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik. Chet el psixologlari bola intellectual koeffitsientini aniqlashga asoslanadilar. Ma'lumotlarga ko'ra, yengil aqli zaiflikda 70 ga teng, o'rtachada 70 dan 50 gacha diapazonda, chuqurda 25dan 0 gacha.

Aqli zaif bolalarning dunyoga kelish sabablari turlicha. Odatda, endogen ( ichki) ekzogen ( tashqi) muhit omillarini ajratish mumkin. Aniqlanishicha, aqli zaiflikning genetik shakllari ustun tursa, ular ular tug'ma aqli zaiflar soniga kiradi. Biroq buzilishlarning yuzaga kelishida onaning yuqumli kasalliklar ( masalan: qizilcha, homilaning alkogol bilan zaharlanishi, narkotiklar, dorilarni haddan ziyod is'temol qilish, onaning endokirin kasalliklari, xromosoma buzilishlari) muhim ro'l o'ynaydi.

Aqli zaif bolalarda nutq buzilishi va ularni me'yorga keltirish xususiyati oliy nerv ( asab) faoliyati hamda psixik rivojlanishning o'ziga xos tomonlari bilan belgilanadi. Aqli zaif bolalarda bilish faoliyatining oliy shakllarini yaxshi rivojlanmaganligi fikrlashning yuzakiligi, nutqni sekin rivojlanishi va sifat jihatdan

o'ziga xosligi, xatti- harakatini so'z orqali nazorat qilishni izdan chiqishi hissiy- irodaviy sohani to'laqonli emasligi kuzatiladi.

Aqli zaif bolalar uchun nutqning kech rivojlanishi xarakterlidir. Kuchli orqada qolish nutqqacha bo'lgan davrdayoq kuzatiladi. Agar go'daklarda chug'urlash 4 oyligidan 8 oyligigacha me'yorida paydo bo'lsa, aqli zaif bolalarda esa bu holat 12- 24 oylikgacha bo'lgan davrda namoyon bo'ladi ( I.V.Karlin. M.Strazulla.)

Kassel, Shlezinger, M. Zeemanlar fikricha, aqli zaif bo'lgan bolalarda birinchi so'zlar 3 yoshdan paydo bo'ladi. I.V.Karlin va M.Strazullaning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bunday bolalarda birinchi so'zlar 2,5 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan davrda paydo bo'lar ekan ( Bolalarda birinchi so'zlarning paydo bo'lish me'yori 10 oy dan 18 oyligigacha ). Aqli zaif bolalarda nutq rivojining sezilarli ortda qolishi iboraviy nutq paydo bo'lishida ko'rindi. Bunda birinchi so'zlarni bayon qilish bilan iboraviy ( birikmani) nutq orqasidagi oraliq vaqt ham, normal rivojlangan bolalarga nisbatan uzoqroq bo'ladi. Aqli zaif bolalarda nutqning rivojlanishi o'ziga xos tomonlari ko'plab mualliflar tomonidan psixologik aspektida o'rganilgan ( V.Petrova, M. Pevzner, I. Karlin, M. Strazulla, S. Borel – Mezonni, Shlezinger, M. Zeeman va boshqalar).

Aqli zaif bolalarda nutqning buzilishi logopediya doirasida M. Xvatsev, R.Ye Levina, G. A. Kashe, D.I. Orlova, K.K.Karlin tomonidan o'rganilgan. Bu tadqiqotlar natijasiga ko'ra yordamchi matabning boshlang'ich sinflarida aniq nuqsonlar 40-60% bolalarda kuzatilar ekan. S. Ya. Rubinshteynning fikricha, aqli zaif bolalarda nutq rivojlanmasligining sababi "miya po'stlog'I faoliyatining zaifligi, barcha analizatorlarda yangi differensial aloqalarning sekinlik bilan ishlab chiqilishidadir". Nutqiy eshitish analizatorlari doirasida differensial shartli aloqalarning asta rivojlanishi munosabati bilan aqli zaif bola ancha vaqt nutq tovushlarini ajrata olmaydi, atrofdagilar aytgan so'zlarini aniq anglamaydi. Motorikaning, shu jumladan, nutqiy motorikaning rivojlanishi aqli zaif bolalarda sekinlik bilan kechadi. Nutqiy harakatlarning aniqligi ikki tomonlama nazorat orqali ta'minlanadi. Eshitish singari kinestetik nazorat ham noaniq bo'lib rivojlanadi. Analitik- sintetik faoliyat darajasining pasayishi nutq tovushlarini differensiallashtiruvchi murakkab psixik ( ruhiy) faoliyat, fonematik qabul qilishning buzilishida namoyon bo'ladi. Bilish faoliyatining buzilishi tilning semantic tomondan o'zlashtirishda qiyinchiliklarga olib keladi. Shuning uchun, aqli zaif bolalar sematik jihatdan murakkab bo'lgan so'zlarni ( mavhum, umumlashgan) va Grammatik shakllarni ( masalan, maqsad va sabab, ergash gapli qo'shma gaplar) qiyinchilik bilan egallaydilar. Analitik-sintetik faoliyatning umumi ravishda rivojlanmay qolishi sababli, til umumlashmalarining shakllanishi, til qoidalaring o'zlashtirishi me'yorda rivojlanigan bolalarga nisbatan o'laroq, qiyinchilik bilan kechadi. Atrofdagi olam haqidagi tasavvurning cheklanganligi, nutqiy aloqaning zaifligi, qiziqishning yetilmaganligi, nutqiy munosabatga bo'lgan talabning

pasayishi aqli zaif bolalarda nutq rivojlanishining sekinlashishi bilan ifodalanadi. Bular bilan bir katorda ularda nutq buzulishlariga olib keluvchi boshqa faktorlar ham sabab bo'ladi, ya'ni nutq apparati tuzulishdagi kamchiliklar natijasida rinolaliya, mexanik dislaliya; bosh miya po'stloq osti qismining ba'zi bo'limlarini zararlanishi oqibatida yuz beradigan organik duduqlanish va dizartriya.

Aqli zaif bolalarda nutqning buzilishi tizimli (sistemali) xarakterga ega. Ularda nutqiy faoliyat bilan bog'liq barcha harakatlarning u yoki bu darajada shakllanmaganligi namoyon bo'ladi-ki, bular motivatsiyaning zaifligi, nutqiy munosabatga bo'lgan talabning pasayishi, nutq faoliyatini programmalashtirishning qo'pol buzulishi, nutqiy harakatlarning ichki programmalashtirishning qo'pol buzulishi, nutqiy harakatlarning ichki programmasi, nutqiy programmaning qo'llashi, nutq ustidan nazorat, oldindan o'ylangan natijani taqqoslash operatsiyalarini buzilishi kabilardir. Aqli zaif bolalarda nutqiy bayon qilish turli darajada buziladi ( mazmunan, til jihatdan, sensamotor darajada). Eng rivojlanmaganlari murakkab darajalari ( mazmun, tilga oid) hisoblanadi. Ular yuqori darajada shakllangan tahlil harakatlari, sintez umumlashmalikni talab etadi. Bunday bolalarda nutqning sensomotor darajasi turlichcha kechadi. Yuqori sinflarga borib ko'pchilik o'quvchilarda nutqning fonetik nuqonlari, motor darajalarining buzilishlarining yo'qolishi ro'y beradi. Shu bilan bir vaqtida bu bolalarda til va semantic darajalarning rivojlanishi me'yorga ( normaga ) yetmay qoladi. Aqli zaif bolalarda nutqning buzulishi turli ko'rinishlarda bo'ladi va ularni tahlil etishda differensial yondashishni talab etiladi. Simptomatika ( kasallik belgilarning yig'indisi) va nutq buzulishining mexanizmi faqatgina miya sistemasining umumiyl rivojlanmay qolishidagina emas, balki, nutqqa bevosita aloqador bo'lgan sistemaning lokal patologiyasi tomonidan belgilanadi. Bu esa aqli zaif bolalarda nutq buzulishlari ko'rinishini yanada murakkablashtiradi. Shu sababli oligofreniyaning ikki guruhi ajratib ko'rsatiladi.

1. Nutq rivojlanmagan oligofreniya:
2. Nutq kamchiliklari bilan murakkablashgan, atipik oligofreniya.

Yordamchi maktablarda tovush talaffuz qilishdagi nuqsonlari o'rta maktablarga qaraganda ko'proq uchraydi. Ular asosida bir emas, balki qator sabablar borki, bular: idrok qilish faoliyatining rivojlanmay qolishi, nutq- eshitish differensiatsiyasining shakllanmasligi, nutqiy motorikaning buzulishi, artikulatsion apparatning tuzulishidagi buzulishlardir.

Me'yorida rivojlangan bolalar singari, aqli zaif bolalarda ham talaffuz qilish murakkab bo'lgan tovushlarda buzulishlar ko'proq uchraydi ( L va R kabi titroq va portlovchi- sirg'aluvchi tovushlar). Boshqa tovushlarga nisbatan R tovushining buzilgan shakllari ko'proq uchraydi ( M. A. Aleksandrovska ma'lumotiga ko'ra).

Bu hol, V. I. Beltyukovning fikriga ko'ra, sirg'aluvchi tovushlarning akustik jihatdan bir –biriga yaqinligi bilan izohlanadi. Aqli zaif bolalarda og'zaki nutqni qabul

qilishdagi buzilish va nutq eshitish, analiz va sintezining to’la rivojlanmasligi sirg’aluvchi tovushlarni talaffuz qilishdagi buzulishlar miqdorini belgilaydi.

### **Xulosा.**

Aqli zaif bolalarda tovush talaffuz buzulishini to’g’rilash, normal rivojlangan bolalarga nisbatan ancha uzoq davom etadigan jarayondir. Ular bilan olib boriladigan ish shartli reflex aloqalari hosil bo’lishining qiyinligi tufayli, yangi tovush shakllanishining sekinlashishi va uzoq davom etishini keltirib chiqaradi. Yangi tovushni nutqqa kiritish, ya’ni avtomatizatsiya bosqichi uzoq vaqtini talab qiladi. Ba’zida bir tovushni me’yoriga yetkazish uchun 3-5 mashg’ulotning o’zi kifoya qiladi, lekin uni avtomatizatsiyalash 1- 1,5 yilda nihoyasiga yetadi. Buning asosiy sababi, aqli zaif bolalardagi oliv nerv faoliyatining o’ziga xos tomonlari, o’z nutqi va to’g’ri talaffuz qilish ustidan nazorat yo’qligi hisoblanadi.

Tovushlar differensiatsiyasi logopedik ishlarning zaruriy bosqichi hisoblanadi. O’rta maktablarda bu ishlar faqat og’zaki nutqda tovushlar o’rni almashgandagina olib boriladi. Yordamchi maktablarda esa bu qadar og’zaki nutqda tovush buzib talaffuz etilganda ham olib borilish zarur. Bu yozma nutqda ko’plab harflar o’rnini almashtirishga olib keluvchi nutq tovushlarini nutqiy- eshitish differensiatsiyasining rivojlanmay qolishidan kelib chiqadi.

### **FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:**

1. M.Y.Ayupova. “ Logopediya” 10.08.2007-yil
2. Raxmanova V.S. “ Korreksion pedagogika va logopediya “ 2007-yil
3. M.Y.Ayupova. “Logopediya” O’zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. 2007-yil
4. “Logopediya” ( L.S. Volkova tahriri ostida ) 1989-yil
5. Vokhobova Munirakhon Sadirdinovna. “Open Access Repository” Академии : CORRECTIVE PEDOGOGICAL WORK CARRIED OUT IN STUTTERING CHILDREN. 372-375
6. Munira, V., & Shoxistaxon, T. (2024). BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHIDA ATROF MUHIT VA OILANING AHAMIYATI. Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 15(1), 51-69.
7. BOLALARDA YUVINEL REVMATOID ARTRIT KASALLIGINING KELIB CHIQISHI HAMDA UNING OLDINI OLISH CHORALARI
8. Voxobova Munira, Mirrahimova Xonzodabegim Sodiqjonovna- Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 2024/2/9. 33-35-bet.
9. Confrencea.WAYS AND METHODS OF SPEECH FORMATION OF CHILDREN WITH ALALIYA SPEECH DEFECTS. Vokhobova Munirakhon Sadirdinovna. 2023/3/17.3/03.231-235-bet
10. Open Access Repository.FORMATION OF SPEECH IMITATION IN CHILDREN WITH SEVERE DEGREE OF MOTOR ALALIA. Vokhobova Munira Sadirdinovna. 2023/2/13.4/2. 316-320-bet.

11. Vokhobova Munirakhan Sadirdinovna. Open Access Repository. CORRECTIVE PEDOGOGICAL WORK CARRIED OUT IN STUTTERING CHILDREN. 9/12.372-375. 2023/12/31.

